

USE OF WORD ETYMOLOGY IN INTRODUCING POEMS TO THE STUDENTS IN THE
2ND CLASS MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY TEXTBOOK IN AN
INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Olimov Bakhtiyorjon Usmanovich

Kokan DPI Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences

Olimova Dilshoda Bakhtiyorjon's daughter

Kokan DPI 3rd Grade Student

ABSTRACT

In the following article, the importance of poems in the mother tongue and reading literacy, introduced as a new textbook for the 2nd grade of general secondary schools, and the effectiveness of teaching them together with the origin of words. There are opinions about.

Keywords: primary education, mother tongue and reading literacy, etymological classification of poems and some words in them

INNOVATION TA'LIM MUHITIDA 2-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI
DARSLIGIDAGI SHE'RLARNI O'QUVCHILARGA TANISHTIRISHDA SO'Z
ETIMOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Olimov Baxtiyorjon Usmanovich

Qo'qon DPI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Olimova Dilshoda Baxtiyorjon qizi

Qo'qon DPI 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Quyida berilgan maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablarining 2-sinfi uchun yangi darslik sifatida kiritilgan ona tili va o'qish savodxonligidagi she'rlarning ahamiyati hamda ularni o'rgatishda so'zlarning kelib chiqishi bilan birlgilikda olib borish samarali natija berishi to'g'risida fikrlar mavjud.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lif, ona tili va o'qish savodxonligi, she'rlar va ulardagi ba'zi so'zlarning etimologik tasnifi

Birinchi Prezidentimiz: "Chindan ham, agarki hozirgi vaqtida dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamon bilan hamqadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rin egallashimiz qiyin bo'ladi" degan purma'no so'zlarida zamonaviy bilimlarni egallamasdan zamonaviy shaxs bo'la olmasligimizni ta'kidlaganlar.[1]

Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi. Yangi darslikda keltirilgan she'rlarni o'rgatishda so'zlar tahlilida etimologik lug'atdan foydalanish anchagina yaxshi samara beradi.

She'r ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riy nutqni ohang jihatdan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.[2]

She'r o'qiganda kichik yoshdagagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqe-a-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalari, ertaklar, yani she'riy asarlar va lirkilari she'rlar o'qitiladi.[3] She'riy hikoya, she'riy ertaklarda sujet, ya'ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. She'rni o'qish asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi. She'riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar. She'riy ohangni his qilmaslik, matndagi so'zlarning ma'nosini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi.

2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida "Mahallamiz jarchisi", "Oqshom" (Anvar Obidjon), "Maktabim" (Dilrabo Saydullayeva), "Eng yaxshi sovg'a", "Ko'klam yomg'iri" (Abdurahmon Akbar), "Mahalla ota-onan", "Bu bizning O'zbekiston" (Kavsar Turdiyeva), "Kim qanday uxlaydi?", "Qaltis savol", "Kungaboqarlar" (Xudoyberdi Komilov), "Geolog so'zi", "Ibn Sino ularshar davo" (Po'lat Mo'min), "Qanotli do'stlar", "Qushlar qishda qayda qo'noqlar?" (Quddus Muhammadiy), "Mikrob" (Ogden Nesh), "Shamol nega shamollamas", "Yoqolgan quloq" (Farid Usmon), "Hunarning hidi qanaqa?" (Janni Rodari), "Kungaboqar va To'lqinjon" (Muhammadjon Qo'shoqov), "Soat" (Qambar ota), "Oftob bobo", "Ona chumchuq va bola chumchuq" (Rauf Tolib), "So'z boylovchi", "Harflarga hazil(lashma)", "Yozuv "yovuz" bo'lmasin" (Dilshod Rajab), "Arra g'iz-g'iz" (G'iyos Komilov) nomli she'rlar o'rinni olgan.[4]

Anvar Obidjonning "Oqshom" she'ri:

Sergak – "hushyor", "sezgir". Bu sifat asli qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lib, "harakatlanmay tek tur" ma'nosini anglatgan ser- fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -gä qo'shimchasini olgan shaklidan -k qo'shimchasi bilan yasalgan.[5]

Kavsar Turdiyeva “Bu bizning O‘zbekiston” she’ri:

Sayqal – bu arabcha so‘z asli šayqal shakliga ega. Tojik tiliga sad undoshini s undoshiga almashtirib olingan. Asli “jilo berdi” ma’nosini anglatuvchi šaqala fe’lining I bob masdari bo‘lib, “jilo” ma’nosini anglatadi.[6]

Qadim – bu arabcha so‘z qadim shakliga ega. O‘zbek tiliga cho‘ziq ī unlisini i unlisiga almashtirib qabul qilingan. Qadama fe’lining “oldida bordi” ma’nosini bilan yasalgan asliy sifat bo‘lib, “uzoq o‘tmish” ma’nosini anglatadi. Bu so‘z yordamida o‘zbek tilida qadimgi sifati yasalgan.

Dilrabo Saydullayeva “Maktabim” she’ri:

O‘choq – “qozon o‘rnatib, o‘t yoqish uchun moslangan qurilma”. Bu so‘z asli o:t (olov) so‘ziga kichraytirish ma’nosini ifodalovchi -chuq qo‘sishmchasini qo‘shib hosil qilingan. Shunga ko‘ra dastlab “kichik olov” ma’nosini anglatgan, “olov yoqiladigan qurilma” ma’nosini keyin paydo bo‘lgan. Qadimgi turkiy tildayoq o: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan, ch undoshi ta’sirida ot so‘zidagi t undoshi ch undoshiga almashgan. Keyinchalik ikkita ch undoshidan biri talaffuz qilinmay qo‘yan, so‘ngra q undoshi oldidagi u unlisi a unlisiga almashgan.

Odob – bu arabcha so‘z asli “xushmuomala, tarbiyali bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi aduba fe’lidan hosil qilingan ko‘plik shakl. Asli “adablar” ma’nosini anglatuvchi bu so‘z “tarbiyalilik”, “xushmuomalalilik”, “xushxulqlilik” kabi ma’nolarni anglatuvchi mavhum ot sifatida ishlatiladi. O‘zbek tilida bu so‘zdan odobli sifati yasalgan.

Orzu – bu ot tojikcha “ko‘ngildagi istak, ezgu umid” ma’nosini anglatadi.

Oftob – bu tojikcha ot “quyosh” ma’nosini anglatadi. Bu ot tarkibidagi tob qismi “issiqlik”, “alanga”, “olov” ma’nosini anglatishi aniq, lekin of qismini aniq izohlab bo‘lmaydi.[7]

Qambar otaning “Soat” she’ri:

Vaqt – arabcha so‘z bo‘lib, “muddat belgiladi” ma’nosini anglatuvchi vaqata fe’lining I bob masdari sanaladi. “Zamon”, “fursat”, “payt” ma’nolarini umumlashtirgan holda bildiradi.

Baxt – bu tojikcha ot “mamnunlik holati” ma’nosini anglatadi. Bu otdan o‘zbek tilida baxtli, baxtsiz sifatlari, baxtsizlik oti yasalgan, baxt-saodat, baxt-iqbol juft otlari tuzilgan.

Berilgan so‘zlarning etimologik tahlili o‘quvchilarining bilim doirasini kengaytirish bilan birga nutqini ham boyitadi, o‘zbek tilining chuqur tarixiy ildizga ega ekanligini anglashga yordam beradi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarini she’r bilan tanishtirishda so‘z etimologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o‘quvchilarining har tomonlama kreativligini oshirishdir. Shu o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan ongli o‘qitish, nutq madaniyatini o‘stirish, yozma va og‘zaki nutq mashqlarini uyg‘un holatda olib borishdir. Shu maqsadda boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi joriy etildi. O‘z navbatida lug‘atlar bilan ishslash kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri sanaladi. O‘zbek tilining boy tarixi, undagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, lug‘at tarkibidagi yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, turli iboralar ma’nosini, so‘z etimologiyasini bilish har bir o‘quvchi uchun juda qiziqarli. Shu yo‘l orqali o‘quvchilar ongiga ko‘plab ma’lumotlar singdiriladi, bir so‘zning etimologiyasini o‘rganish orqali ma’naviy jihatdan ham tarbiyalanib boradi, natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsliklardagi mavzular bilan ishslashda tushunmovchilik holatlari yuzaga kelish ko‘rsatkichi juda past bo‘ladi yoki bunday holat yuzaga kelmaydi, ularning o‘zlashtirayotganlari fikrlash doirasi yanada kengayishiga, bilimlari oshib borishiga,

xotirasining mustahkam bo'lishiga, dars yanada tushunarliroq, qiziqarliroq o'tishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga so'zlarning etimologiyasini o'rgatish mobaynida ta'lif bilan birqalikda ularga tarbiyaviy bilim ham berib boriladi, ibratomuz, ma'rifiy saboq vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.95.
2. Homidiy H. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi , 1967. – B. 92
3. Qosimova K., Matchonov S. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – B. 125
4. Ona tili va o'qish savodxonligi darslik 2-sinf uchun, K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild. – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 282-283, 4996-497,
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 2-jild. – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 91, 337, 370-371, 521
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 3-jild. – Toshkent: Universitet, 2009. – B. 24, 172, 175
8. Olimov, B. U., & Olimova, D. B. (2020). ORGANIZATION OF MENTAL ARITHMETIC COURSES FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Theoretical & Applied Science, (4), 943-946.
9. Olimov, B. U., & Olimova, D. B. Q. (2021). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILARNING KITOBI O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARI YUZASIDAN UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI YO'LGA QO'YISH. Academic research in educational sciences, 2(10), 321-325.
10. Olimov, B. U., & Olimova, D. B. (2020). The effectiveness of mental arithmetic courses in pre-school education. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (82), 525-527.
11. Usmanovich, O. B. (2022). THE SIGNIFICANCE OF THE INTERIOR OF THE SCHOOL ROOMS.
12. Usmanovich, O. B. (2022). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL GUIDANCE OF STUDENTS.
13. Usmanovich, O. B. (2022). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL GUIDANCE OF STUDENTS.
14. Alimov, B., Isaqova, Z., Ikramova, M. X., & Bo'teyev, A. (2022). DIDACTIC SHAPT-SHAPOITLAPI OF PIVOJLANTIP OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER OF THE SCIENCE OF" TECHNOLOGY". Open Access Repository, 9(11), 328-333.
15. Usmanovich, O. B., & Egamberdievich, T. J. R. (2022). INNOVATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM-THE NEED OF THE TIME. Open Access Repository, 9(11), 9-15.
16. Usmanovich, O. B., & Egamberdievich, T. J. (2022). CONNECTION WITH EXACT AND NATURAL SCIENCES IN FORMING EDUCATION (In the case of technology lessons). Open Access Repository, 9(11), 32-36.

17. Usmanovich, O. B., & Egamberdievich, T. J. (2022). INTERDISCIPLINARY CONNECTION IN FORMING STUDENTS' CREATIVE SKILLS (In the Case of Technology Lessons). *Open Access Repository*, 9(11), 69-77.
18. Tojiyevich, R. X., Juraevich, X. A., & Toshpo'latovich, Y. O. (2022). Theoretical Justification Of The Dimensions Of The Working Part Of The Combined Aggregate Cutting Grinder. *Journal of Positive School Psychology*, 6(9), 3663-3667.
19. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). INTERPRETATION OF SMART TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY LESSONS. *Open Access Repository*, 9(11), 23-31.
20. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). THE IMPORTANCE OF USING NON-STANDARD TEST TASKS IN MONITORING STUDENT KNOWLEDGE. *Open Access Repository*, 9(11), 44-53.
21. Toshpulatovich, Y. O. (2021). SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL BASIS OF POTATO DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 296-300.
22. Yuldashev, O. (2021). РАСЧЁТ СИЛОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ. *НАУКА И МИР*.
23. Yuldashev, O. (2021). ТУПРОҚҚА ИШЛОВ БЕРУВЧИ АГРЕГАТ ШАРНИРЛИ БОҒЛАНИШЛИ ҚОЗИҚЧАЛАРИ БЎЛГАН БАРАБАНИНИГ КОНСТРУКТИВ ЎЛЧАМЛАРИНИ АСОСЛАШ. *Agro protsessing*.
24. Yuldashev, O. (2021). ЭКИШДАН ОЛДИН ТУПРОҚҚА ИШЛОВ БЕРИШНИНГ ЯНГИ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *Agro protsessing*.
25. Юлдашев, О. Т. (2018). Умумий ўрта таълим, олий таълим тизимида меҳнат таълими дарсларини ташкил этишда интеграция жараёниниг ўрни. *Современное образование (Узбекистан)*, (1), 35-43.
26. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). THE REPLACEMENT OF TECHNOLOGICAL EDUCATIONAL WORK IN GUIDING SCHOOL STUDENTS TO CHOOSE THE RIGHT PROFESSION.
27. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). REGARDING THE ORGANIZATION OF WOODWORKING TRAINING IN A NON-TRADITIONAL WAY.
28. Usmanovich, O. B., & Inomjonovich, M. R. (2022). GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING THE PREPARATION OF ITEMS AND PRODUCTS IN TECHNOLOGY IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
29. Usmanovich, O. B., Rafikovna, I. Z., Inomjonovich, M. R., Abdumannonovich, S. E., Egamberdievich, T. J., & Tashpulatovich, Y. B. (2022). SELECTION OF ACTIVE TEACHING METHODS IN TECHNOLOGICAL TRAINING SESSIONS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).